CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2026.26.08. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAYTOVA FARIDA KUCHKAROVNA

TA'LIMIY O'YINLAR VOSITASIDA KO'ZI OJIZ BOLALAR NUTQIDAGI KAMCHILIKLARNI KORREKSIYALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(1-2-sinf misolida)

13.00.03 – Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

UO'K: 376.015.31-056.262-053.5:808.5

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical science

Xaytova Farida Kuchkarovna
"Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalash metodikasini takomillashtirish"(1-2-sinf misolida).....3

Хайтова Фарида Кучкаровна
"Совершенствование методики коррекции нарушений речи у слепых детей посредством обучающих игр (на примере 1–2 классов).....21

Khaytova Farida Kuchkarovna
"Improving the methodology for correcting speech disorders in blind children through educational games (A Case Study of Grades 1–2).....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ List of publications.....43

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2026.26.08. Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAYTOVA FARIDA KUCHKAROVNA

TA'LIMIY O'YINLAR VOSITASIDA KO'ZI OJIZ BOLALAR NUTQIDAGI KAMCHILIKLARNI KORREKSIYALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH
(1-2-sinf misolida)

13.00.03 – Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Ped13049 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Qosimova Ozoda Xudoynazarovna** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna,** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent; **Raximova Xurshida Sadikovna** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2026.26.08. Ped.04.03 Ilmiy kengashning 2026-yil «23» 11 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+99871) 712-27-55; faks; (99871) 712-45-41: e-mail: tvchdpi@cspu.uz

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (581 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+99871) 712-27-55; faks; (99871) 712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «17» 11 kuni tarqatildi.
(2026-yil «17» 11 dagi 49 - raqamli reestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim amaliyotida ko'zi ojiz bolalarning nutqiy rivojlanishini ta'minlash, mavjud nutqiy kamchiliklarni erta aniqlash va individual-korreksion yondashuv asosida bartaraf etish inklyuziv ta'limning muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ko'rishning cheklanganligi bolaning predmetli-amaliy tajribasi, atrof-muhitni bilvosita idrok etishi, so'z ma'nolarini konkret obraz va vaziyat bilan bog'lash hamda kommunikativ faoliyatni tashkil etish jarayoniga o'ziga xos ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashda fonetik, fonematik, leksik, grammatik va kommunikativ komponentlarni o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirish, tiflopedagogik va logopedik vositalarni uyg'unlashtirish, erta diagnostika va individual korreksion dasturlarni joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida ko'zi ojiz hamda zaif ko'ruvchi bolalarning nutqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash masalasi maxsus pedagogika, tiflopedagogika, logopediya, neyropsixologiya va inklyuziv ta'limning integrativ muammosi sifatida qo'llash amaliyoti kengaymoqda. Mavjud tadqiqotlar ko'zi ojiz bolalarda strukturaviy nutq komponentlari nisbatan saqlangan hollarda ham pragmatik nutq, ijtimoiy kommunikatsiya, vaziyatga mos verbal munosabat, kommunikativ tashabbus va nutqdan funksional foydalanishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Shu sababli ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashni faqat tovush talaffuzi yoki lug'at boyligini rivojlantirish bilan cheklamasdan, "sensor tajriba→predmetli tasavvur→verbal nomlash→semantik anglash→grammatik modellashtirish→ pragmatik qo'llash → ijtimoiy kommunikatsiya" uzviyligi asosida tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, maxsus va inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish, korreksion-pedagogik xizmatlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. "2026-yilda davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida maxsus pedagoglar uchun korreksion pedagogika va defektologiya bo'yicha bilimlar bilan bir qatorda, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos maxsus metodikalarni, jumladan nutq nuqsonlarini bartaraf etish"[1] vazifasi belgilab berilgan. Shu sababli ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni aniqlash, korreksiyalash va monitoring qilishning ilmiy-metodik tizimini takomillashtirish; tiflopedagogik, logopedik, sensor-kompensator va kommunikativ yondashuvlarni integratsiyalash; individual korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish; multisensor, taktil-audial hamda zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish mexanizmlarini pedagogik jihatdan asoslash bugungi O'zbekiston maxsus va inklyuziv ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

---

[1]O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining 2026-yil 7-apreldagi 2026/2-son, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2026-yil 18-martdagi 348-son, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2026-yil 11-martdagi 24-mh-son, Sog'liqni saqlash vazirligining 2026-yil 13-martdagi 03-11-2026-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qo'shma qarori

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 20-oktabrdagi PQ-407-son “O‘zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”, 2024-yil 25-yanvardagi 46-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim olishlarini tashkil etish va ularni reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy hujjatlarda berilgan vazifalar ijrosini ta’minlashda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikaning fan va texnologiya rivojlanishining 1 “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy, ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalar ta’limi va tarbiyasi hamda ijtimoiylashuvi bo‘yicha tadqiqot ishlari M.Y.Ayupova, Z.M.Ahmedova, U.Y.Fayziyeva, Z.N.Mamarajabova, L.R.Mo‘minova, L.Sh.Nurmuhamedova, F.U.Qodirova, I.B.Abduvaliyevalar tomonidan olib borilgan. Bu izlanishlar natijasida korreksion-pedagogik jarayonni amaliyotga samarali tashkil etishga oid tavsiyalar joriy etilgan. Ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalarning o‘ziga xos rivojlanishi bilan bog‘liq metodik, psixologik va pedagogik masalalar N.Z.Abidova, A.Q.Xoliqov, M.B.Mamatovalar tomonidan olib borilgan izlanishlari tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari I.P.Pavlov, I.M.Sechenov, V.M.Akimushkin, L.V.Mardaxayev, A.G.Litvak, I.S.Morgulisa, L.I.Solnseva, S.Xorosh tomonidan ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasi va ular bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning aspektlari tahlil etilgan. O.E.Govrilova, F.T.Shageyeva, L.L.Nikitina, T.V.Fadinalar tomonidan pedagogik ta’lim innovatsion klasteri ilmiy-nazariy asoslangan.

Xorijda K.Becker, W.Belmer, G.P.Boush, N.Felden, Heather Mason, Cheryl Kamei-Hannan, Frances Mary, D.Andrea, J.John, N.Suhrweirr, S.Urwin, L.Zeuthen kabilar tomonidan tiflopedagogik qarashlar tahlil etilgan va ularning natijasida korreksion-pedagogik ishlar samaradorligini oshiruvchi metodik tavsiyalar, texnologiyalar amalga joriy etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi “Pedagogik ta’lim innovatsion klasterning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish” (2022-2026-yil) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqdagi kamchiliklarini korreksiyalash metodikasini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarni ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarini korreksiyalashning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqini korreksiyalash modelining mazmuniy-protsessual komponentlarini takomillashtirish;

ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalash metodikasi polisensor o'yinlarni ishlab chiqish;

ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarini korreksiyalash metodikasining samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni ta'limiy o'yinlar vositasida korreksiyalash jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent, Samarqand va Qashqadaryo viloyatidagi "Nurli maskan" nomli maxsus maktab-internatlarining 121 nafar 1-2-sinf o'quvchilari respondent sifatida jalb qilingan.

Tadqiqotning predmetini ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda muammoga doir psixologik, pedagogik, metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish, pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnoma, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarini korreksiyalashning didaktik imkoniyatlari adaptiv-didaktik muhitda bolalarning faoliyatli motivlariga ta'sirni kuchaytiruvchi tiflometodik vositalarni ikkilamchi nuqson tavsifiga ko'ra variativ qo'llash asosida aniqlashtirilgan;

ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqini korreksiyalash modeli mazmuniy-protsessual komponentlari maxsus tiflometodik vositalarni kiritish, o'yin qoidalarini bolalarning taktil idrok imkoniyatlariga ko'ra maqbullashtirish hamda mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich variativ tizimlashtirish orqali takomillashtirilgan;

ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalash metodikasi polisensor o'yinlarni differensial yondashuvga ko'ra tasnifiy guruhlashda bolalarning sensor-nutqiy rivojlanish darajasini inobatga olish hamda korreksion mashg'ulotlar tizimini kompensatorlik tamoyili ustuvorligida ishlab chiqilgan;

ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarini korreksiyalash metodikasining samaradorligini bolalarning taktil-sensor ko'nikmalari hamda nutqiy komponentlarining rivojlanish dinamikasi mezonlarini pedagogik eksperiment asosida miqdoriy va sifat ko'rsatgichlarini qiyosiy tahlil qilish orqali asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalash metodikasi mazmuni singdirilgan "Korreksion-logopedik ish" o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan;

ko‘zi ojiz bolalarda artikulyatsion nutq apparati harakatchanligini, eshituv diqqati, tovush talaffuzi, lug‘at boyligi, grammatik qurilishi hamda mustaqil nutqini rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Zamonaviy nutq terapiyasi” ta’limiy o‘yinlar kompleksi ishlab chiqilgan;

tadqiqot doirasida ko‘zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni ta’limiy o‘yinlar vositasida korreksiyalash samaradorligini baholash mezonlari, indikatorlari hamda ular asosida topshiriqlar tizimi ishlab chiqilgan;

ko‘zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik mashg‘ulotlarda ta’limiy o‘yinlardan oqilona foydalanish usullari berilgan “Nutq ustasi” logotrening dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, pedagogik kuzatuv, logopedik tekshiruv, milliy va xorijiy tajribalarga asoslangan empirik o‘rganishlar asosida keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi, natijalarning matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko‘zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashning tiflopedagogik, logopedik va didaktik asoslarini ta’limiy o‘yinlar vositasida integratsiyalash orqali takomillashtirish, ta’limiy o‘yinlarning sensor-kompensator, kognitiv, nutqiy-korreksion va kommunikativ imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash, ularni bolalarning nutqiy rivojlanish darajasi, nutq kamchiligining turi va sensor-kommunikativ ehtiyojlariga ko‘ra differensial qo‘llash mezonlarini aniqlashtirish, shuningdek, “sensor idrok – predmetli-amaliy faoliyat – verbalizatsiya – nutqiy modellashtirish – kommunikativ qo‘llash” uzviyligi asosida korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar tizimini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ko‘zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalashga yo‘naltirilgan ta’limiy o‘yinlar majmuasi, polisensor o‘yinlarni differensial tanlash mezonlari, korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar tizimi hamda diagnostik-baholash vositalarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta’limiy o‘yinlar vositasida ko‘zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarini korreksiyalash metodikasini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

ta’limiy o‘yinlar vositasida ko‘zi ojiz bolalar nutqini korreksiyalash modelining mazmuniy-protsessual komponentlari jarayonga maxsus tiflometodik vositalarni kiritish, o‘yin qoidalarini bolalarning taktil idrok imkoniyatlariga ko‘ra maqbullashtirish hamda mashg‘ulotlarni bosqichma-bosqich variativ tizimlashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar “Korreksion-logopedik ish” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 25-sentyabrdagi 5138-246a-b604-c174-3403-3571-4619-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘zi ojiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fonetik-fonematik idroki, lug‘at boyligi, grammatik tuzilishi, bog‘lanishli nutqi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga erishilgan;

ko‘zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarini korreksiyalash polisensor o‘yinlarni differensial yondashuvga ko‘ra tasnifiy guruhlashga bolalarning sensor-nutqiy rivojlanish darajasini inobatga olish hamda korreksion mashg‘ulotlar tizimiga oid ilmiy tavsiyalardan O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan “Yoshlar sport intellektual o‘yinlari stoli atrofida birlashadi” nomli grant loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyatining 2026-yil 30-iyunda berilgan 1/08-375-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘zi ojiz bolalarning sensor va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda ta’limiy o‘yinlardan foydalanishning metodik ta’minoti mukammallashtirilgan;

ko‘zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalash metodikasining samaradorligini bolalarning taktil sensor ko‘nikmalari hamda nutqiy komponentlarining rivojlanish dinamikasi mezonlarini pedagogik eksperiment asosida miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilishga oid takliflaridan Toshkent, Samarqand, Qarshi shaharlaridagi “Nurli maskan” ko‘zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashgan maktab-internatlari amaliyotida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazining 2026-yil 30-iyundagi 01/10-01-203-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘zi ojiz o‘quvchilarining nutqiy muloqot va kognitiv faoliyatini korreksiyalashning diagnostik hamda metodik komponentlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish, shulardan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, 128 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi keltirilgan bo‘lib, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan. Shuningdek, tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar aks etgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ta’limiy o‘yinlar vositasida ko‘zi ojiz bolalardagi nutq buzilishlarini korreksiyalash metodikasining nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda ko‘rish analizatori faoliyatining cheklanganligi sharoitida nutqiy rivojlanishning psixologik-pedagogik qonuniyatlari, nutq kamchiliklarining kelib chiqish omillari, sensor-kompensator imkoniyatlardan foydalanishning korreksion ahamiyati hamda ta’limiy o‘yinlarni logopedik

mashg'ulotlarga integratsiyalashning ilmiy-metodik asoslari tadqiq etilgan. Ko'zi ojiz bolalarda nutqning shakllanishi faqat artikulyatsion apparat faoliyati bilan emas, balki predmetli tasavvurlar, sensor-perseptiv tajriba, fonematik idrok, leksik-semantik anglash va kommunikativ faoliyatning o'zaro aloqadorligi bilan belgilanishi asoslangan. Shu nuqtayi nazardan, ta'limiy o'yinlar nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishning yordamchi didaktik vositasi sifatida emas, balki saqlangan analizatorlarni faollashtirish, predmetli-amaliy tajribani kengaytirish va nutqiy ko'nikmalarni real muloqot vaziyatlariga ko'chirishga xizmat qiluvchi korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat shakli sifatida talqin etilgan.

Tadqiqot muammosining nazariy asoslarini aniqlashtirishda L.S.Vigotskiyning rivojlanishdagi birlamchi va ikkilamchi buzilishlar, kompensatsiya hamda ta'limning ijtimoiy mohiyatiga oid qarashlari muhim metodologik asos sifatida o'rganilgan. Olimning fikricha, bolaning rivojlanishidagi cheklanishlarning pedagogik oqibatlarini bartaraf etishda saqlangan funksiyalarga tayanish va ijtimoiy tajribani maqsadli tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, ko'zi ojiz bolalarda nutqiy kamchiliklarni korreksiyalash jarayonida eshituv, taktil va kinestetik idrokni faollashtirish, ularni nutqiy harakatlar bilan uyg'unlashtirish hamda o'yin faoliyati orqali kommunikativ tajribani boyitish zarurligi asoslangan.

A.G.Litvakning tiflopsixologik tadqiqotlarida ko'rish funksiyasining buzilishi bolaning predmetli idroki, fazoviy tasavvurlari va nutqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi, ayrim tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar artikulyatsion harakatlarni ko'rish orqali nazorat qilish imkoniyatining cheklanganligi bilan bog'liq bo'lishi ta'kidlangan. Mazkur ilmiy qarashlar ko'zi ojiz bolalarda tovush talaffuzini korreksiyalashda faqat og'zaki ko'rsatmalar bilan cheklanmasdan, artikulyatsion harakatlarni taktil-kinestetik sezgilar orqali anglash va mustahkamlashga yo'naltirilgan maxsus mashqlarni qo'llash zaruratini belgilaydi. Biroq ushbu nazariy qoidalarni boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual nutqiy ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'limiy o'yinlar tizimida amalga oshirish masalasi alohida metodik yechimni talab etadi.

M.I.Zemsov ko'rish imkoniyatlari cheklangan shaxslarning psixik rivojlanishini o'rganishda biologik va ijtimoiy kompensatsiya omillarining o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratgan. Uning qarashlari ko'zi ojiz bolalarda saqlangan sensor imkoniyatlarning rivojlanishi o'z-o'zidan yetarli kompensatsiyani ta'minlamasligi, buning uchun maqsadli tashkil etilgan pedagogik faoliyat va ijtimoiy tajriba zarurligini tushuntirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda mazkur yondashuv eshituv, taktil idrok va harakat tajribasini nutqiy faoliyat bilan integratsiyalashning nazariy asosi sifatida qabul qilingan.

N.Z.Abidova tomonidan ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqining rivojlanish xususiyatlari va kamchiliklarini bartaraf etish texnologiyalari o'rganilib, nutqning shakllanishi umumiy rivojlanish qonuniyatlariga bo'ysunishi bilan birga, ko'rish idrokining cheklanganligi, predmetli tasavvurlarning yetarlicha shakllanmaganligi va sensor tajribaning o'ziga xosligi sababli ayrim komponentlarda rivojlanish sur'ati hamda sifati farqlanishi ko'rsatilgan. Olimaning ilmiy xulosalari nutqiy buzilishlarni alohida tovushlar talaffuzidagi nuqson sifatida

emas, balki fonetik-fonematik, leksik-grammatik va semantik komponentlar o'rtasidagi tizimli aloqadorlik doirasida o'rganish zarurligini asoslaydi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvni 1–2-sinf ko'zi ojiz o'quvchilarining taktil tajribasi, nutqiy rivojlanish darajasi va kommunikativ ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'limiy o'yinlar orqali amalga oshirish tadqiqotning alohida metodik yo'nalishini tashkil etgan.

M.B.Mamatova nutqiy funksiyalarning rivojlanishida artikulyatsion motorika va nutqiy kinesteziyalarning ahamiyatini ta'kidlab, artikulyatsion harakatlarning yetarli shakllanmaganligi nutqning boshqa komponentlari rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini qayd etgan. Ushbu qarashlar ko'zi ojiz bolalarda artikulyatsion harakatlarni shakllantirish, eshituv nazoratini rivojlantirish va motor faoliyatni muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan mashqlarni korreksion mashg'ulotlar tarkibiga kiritishning ilmiy asoslarini belgilaydi.

D.Sh.Shokirova kompleks yondashuvning mazmunini bolaning rivojlanish xususiyatlarini har tomonlama o'rganish, baholash va korreksiyalash jarayonida mutaxassislar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'laydi. Mazkur qarashdan kelib chiqib, ko'zi ojiz bolalarning nutqiy kamchiliklarini korreksiyalash logoped, tiflopedagog va psixolog faoliyatining o'zaro uzviyligi asosida tashkil etilishi, bunda ta'limiy o'yinlar sensor-perseptiv, nutqiy va ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish vazifalarini birlashtiruvchi metodik vosita sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Asoslovchi tadqiqotda ta'limiy o'yinlarning rivojlantiruvchi imkoniyatlari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev va D.B.Elkoninning o'yin faoliyatiga oid psixologik qarashlari bilan bog'liq holda tahlil etilib, o'yin jarayonida bolaning nutqiy faolligi, mustaqil harakatga intilishi, predmetli-amaliy faoliyati va ijtimoiy tajribasi o'zaro aloqadorlikda rivojlanishi asoslangan. Mazkur nazariy yondashuvlar korreksion faoliyatni bolaning individual imkoniyatlari va tabiiy ehtiyojlariga mos, motivatsion jihatdan qulay shaklda tashkil etishning ilmiy asosini belgilagan.

Biroq nazariy qarashlar va mavjud korreksion-logopedik amaliyotning qiyosiy tahlili ta'limiy o'yinlarning rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan foydalanishda muayyan metodik nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatgan. Xususan, asosiy muammo ta'limiy o'yinlarning yetishmasligida emas, balki ularning korreksion maqsadlari, sensor-kompensator imkoniyatlari va ko'zi ojiz bolalarning individual nutqiy ehtiyojlari o'rtasidagi uzviylikning yetarlicha ta'minlanmaganligidadir. An'anaviy mashg'ulotlarda tovush talaffuzi, lug'at boyligi va artikulyatsion harakatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, ushbu jarayonlarning predmetli tasavvurlarni shakllantirish, so'zlarning semantik mazmunini anglash va mustaqil kommunikativ faoliyat bilan integratsiyalashuvi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu esa o'zlashtirilgan nutqiy birliklarni yangi predmetli-amaliy va ijtimoiy vaziyatlarda mustaqil qo'llashda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotda korreksion-logopedik faoliyatni alohida mashqlar majmuasi sifatida emas, balki sensor idrok, predmetli-amaliy harakat, verbal ifodalash va kommunikativ tajribani o'zaro integratsiyalashga asoslangan yaxlit adaptiv-didaktik jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ilgari surilgan.


O‘tkazilgan nazariy va qiyosiy-metodik tahlillar natijasida ko‘zi ojiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kamchiliklarini korreksiyalashda ta’limiy o‘yinlarning sensor-kompensator, artikulyatsion-fonetik, leksik-grammatik va kommunikativ imkoniyatlarini yagona adaptiv-didaktik tizimda integratsiyalash, ularni nutqiy buzilishlarning xususiyati hamda o‘quvchilarning individual sensor imkoniyatlariga muvofiq differensial tanlash va korreksion natijalarni kompleks baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi aniqlangan. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda ko‘rish nuqsonining psixik va nutqiy rivojlanishga ta’siri, sensor kompensatsiya hamda o‘yin faoliyatining pedagogik imkoniyatlari alohida yo‘nalishlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning 1-2-sinf ko‘zi ojiz o‘quvchilarining individual nutqiy ehtiyojlariga moslashtirilgan yaxlit korreksion metodikada o‘zaro uyg‘unlashuvi yetarlicha tizimlashtirilmaganligi tadqiqotning ilmiy bo‘shlig‘i sifatida belgilangan.

Mazkur tadqiqot natijasida an’anaviy korreksion-logopedik yondashuvlarni adaptiv-didaktik, polisensor va kommunikativ yo‘naltirilgan ta’limiy o‘yinlar asosida takomillashtirish, ularning mazmunini o‘quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlariga moslashtirish hamda natijaviyligini kompleks mezonlar orqali baholash zarurligini asoslangan. Ushbu yondashuv tadqiqotning keyingi bosqichida korreksion modelning mazmuniy-protsessual komponentlarini ishlab chiqish, ta’limiy o‘yinlarni differensial tizimlashtirish va takomillashtirilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov orqali aniqlashning nazariy-metodologik asosini tashkil etgan.

Dissertatsiyaning **“Ta’limiy o‘yinlar vositasida ko‘zi ojiz bolalardagi nutq kamchiliklarini korreksiyalashning texnologik tizimi”** deb nomlangan ikkinchi bobida 1-2-sinf ko‘zi ojiz o‘quvchilarining nutqiy kamchiliklarini korreksiyalash modeli, sensor idrok imkoniyatlariga moslashtirilgan ta’limiy o‘yinlar texnologiyasi hamda korreksion mashg‘ulotlarni tashkil etishning didaktik-metodik asoslari yoritilgan. Bunda ko‘rish analizatori faoliyatining cheklanganligi sharoitida nutqiy rivojlanishni ta’minlashning muhim sharti sifatida saqlangan sensor imkoniyatlarni faollashtirish, predmetli-amaliy tajribani boyitish va uni nutqiy faoliyat bilan integratsiyalashga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

Tadqiqotda ko‘zi ojiz bolalarning nutqiy kamchiliklarini korreksiyalash samaradorligi logopedik mashqlarni ularning sensor idrok imkoniyatlari, individual nutqiy rivojlanish xususiyatlari va kommunikativ ehtiyojlariga moslashtirish bilan uzviy bog‘liqligi asoslangan. Bunda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish orqali saqlangan analizatorlarning kompensator imkoniyatlarini faollashtirish, predmetli tasavvurlarni nutqiy ifoda bilan bog‘lash, artikulyatsion-fonetik va leksik-grammatik kamchiliklarni bartaraf etish hamda mustaqil muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan korreksion-pedagogik faoliyatning yaxlitligini ta’minlash zarurligi aniqlangan.

Mazkur ilmiy-metodik yondashuv asosida ta’limiy o‘yinlar vositasida ko‘zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalash modeli ishlab chiqilgan(1-rasmga qarang). Model uzviy bog’langan maqsadli, metodik, mazmunli-texnologik, tashkiliy-muhit, baholash va natijaviy bloklardan iborat.



1-rasm. Ta'limiy o'yinlar vositasida ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni korreksiyalash modeli.

Modelning maqsadli blokida sensor-nutqiy integratsiyani ta'minlash, lug'at boyligini predmetli tasavvurlar asosida aniqlashtirish, nutqdagi verbalizm va grammatik kamchiliklarni korreksiyalash, kommunikativ faollikni rivojlantirish hamda tiflotexnik vositalar orqali kompensator imkoniyatlarni kengaytirish vazifalari o'zaro bog'liq holda belgilangan. Bunda bolaning predmet haqidagi sensor tasavvuri bilan uni ifodalovchi so'z o'rtasidagi semantik aloqani mustahkamlash nutqiy rivojlanishning muhim metodik sharti sifatida qaralgan.

Modelning metodik bloki polisensorlik, individuallashtirish, izchillik va korreksion yo'naltirilganlik tamoyillariga asoslanib, eshituv, taktil, kinestetik hamda boshqa saqlangan sezgi imkoniyatlaridan maqsadli foydalanishni nazarda tutadi. Mazmunli-texnologik blokda maxsus moslashtirilgan ta'limiy o'yinlar, tiflometodik va tiflotexnik vositalar, artikulyatsion-fonetik mashqlar hamda nutqiy-kommunikativ topshiriqlar yagona korreksion jarayonga birlashtirilgan. Xususan, taktil modellar, Brayl tizimiga moslashtirilgan o'yin vositalari, ovozli axborot texnologiyalari va predmetli-amaliy mashqlar yordamida o'quvchilarning sensor tajribasini nutqiy ifodalash imkoniyatlarini kengaytirishga e'tibor qaratilgan.

Modelning tashkiliy-muhit blokida korreksion faoliyatning uzluksizligini ta'minlash uchun maxsus maktab-internat, oila, logoped, tiflopedagog, psixolog hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati asoslangan. Mazkur hamkorlik o'quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, mashg'ulotlarni moslashtirish va egallangan nutqiy ko'nikmalarni kundalik muloqot sharoitida mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Modelning baholash blokida artikulyatsion-fonetik, sensor-motor, leksik-grammatik va kommunikativ-psixologik mezonlari orqali predmetli tasavvurlarning aniqligi, bog'lanishli nutqning grammatik to'g'riligi, verbalizmning kamayishi, muloqotdagi mustaqillik hamda emotsional barqarorlikni kuzatish nazarda tutilgan. Natijaviy blok esa sensor tajriba bilan nutqiy faoliyatning integratsiyalashuvi, so'z boyligining predmetli mazmun bilan boyishi va o'quvchilarning ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Ta'limiy tadqiqotda ko'zi ojiz bolalarning nutqiy rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'limiy o'yinlar texnologiyasi sensor idrok va nutqiy faoliyatning o'zaro aloqadorligi asosida takomillashtirilgan. Bunda o'yinlarni tanlashning asosiy metodik talabi sifatida ularning bolaning nutqiy rivojlanish darajasi, buzilgan nutq komponenti, sensor idrok imkoniyatlari va kommunikativ ehtiyojlariga muvofiqligi belgilangan. Mazkur yondashuv polisensor o'yinlarni differensial guruhlash hamda "eshitish–taktil–kinestetik–verbal" sensor kanallarini korreksion mashg'ulotlar mazmuniga bosqichma-bosqich integratsiyalash orqali amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Tadqiqotda taktil idrokni rivojlantiruvchi o'yinlar predmetlarning shakli, hajmi, tuzilishi va sirt xususiyatlarini amaliy farqlash, ularni nomlash hamda belgilarini nutqda ifodalashga yo'naltirilgan. Jumladan, "Sehrli xaltacha", "Qog'ozli yong'oqcha" kabi o'yinlar orqali predmetni paypaslab aniqlash, uning xususiyatlarini taqqoslash va nomlash jarayonlari o'zaro bog'langan. "Nuqtalar poygasi" o'yini esa barmoqlarning taktil sezgirligi va mayda motorikasini rivojlantirishni Brayl alifbosidagi nuqtalar joylashuvini o'zlashtirish, harflarni

aniqlash, so‘zlarni talaffuz qilish va bo‘g‘inlarga ajratish bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan. Shu orqali sensor-harakat tajribasi va nutqiy faoliyatning birgalikda rivojlanishiga qaratilgan metodik imkoniyatlar aniqlashtirilgan.

Eshituv idrokiga asoslangan o‘yinlar tizimida tovush manbasini aniqlash, akustik belgilarni farqlash, eshituv diqqati va xotirasini rivojlantirish hamda fonematik idrokni shakllantirish vazifalari o‘zaro muvofiqlashtirilgan. “Qayerga yashirdim?”, “Ovoz qutichalari”, “Ovozli izlar” o‘yinlari orqali tovushning yo‘nalishi, manbasi va xususiyatlarini aniqlash fazoviy tasavvurlar hamda nutqiy ifodalash bilan bog‘langan. “Jim ovozlar”, “Qizil-oq”, “Nima o‘zgardi?” kabi o‘yinlar esa eshituv differensiatsiyasi, tovushlarni tanish va taqqoslash, so‘z tarkibidagi tovushlarni ajratish hamda fonematik tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Mazkur o‘yinlarda ko‘zi ojiz bolalar uchun tovushli ko‘rsatmalar va taktil belgilarni birgalikda qo‘llash orqali topshiriqlarning idrok etilish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Nutqning artikulyatsion-fonetik komponentini korreksiyalashda nafas, ovoz, artikulyatsion motorika va tovush talaffuzini rivojlantiruvchi o‘yinlarning o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratilgan. Xususan, “Hidla va nimaligini ayt”, “Choyni sovutamiz” o‘yinlari nafas harakatlarini boshqarish, “Aks-sado”, “Ritm va ovoz”, “Ona va bola” o‘yinlari ovoz balandligi, ritmi va intonatsion ifodaliligini farqlash, “Xursand va xafa”, “Til robotni boshqaradi”, “Nutq gimnastikasi” o‘yinlari esa artikulyatsion a’zolar harakatchanligi va kinestetik nazoratni rivojlantirishga moslashtirilgan. Tovush talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda “Qarg‘alar”, “Rubob chalamiz”, “Kaptarlarga don ber” kabi o‘yinli topshiriqlardan foydalanish nazarda tutilgan. Bunda nutqiy mashqlarning bajarilishi eshituv namunasi, harakatni sezish va takrorlash bilan bog‘lanib, o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga mos korreksion sharoit yaratishga yo‘naltirilgan.

Ta’limiy o‘yinlarning leksik-grammatik va kommunikativ imkoniyatlari predmetli tasavvurlarni boyitish, so‘z ma’nolarini aniqlashtirish, grammatik shakllardan o‘rinli foydalanish hamda bog‘lanishli nutqni rivojlantirish bilan bog‘liq holda yoritilgan. Bunda predmetlarni bevosita idrok etish, ularning belgilarini og‘zaki tavsiflash, o‘zaro taqqoslash va turli nutqiy vaziyatlarda qo‘llash orqali so‘zning predmetli mazmuni bilan verbal ifodasi o‘rtasidagi aloqani mustahkamlashga alohida ahamiyat berilgan. Syujetli-rolli va jamoaviy o‘yinlarda o‘quvchilarning suhbatga kirishishi, savol-javobda ishtirok etishi, fikrini izchil bayon qilishi va nutqiy tashabbus ko‘rsatishi korreksion faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida belgilangan.

Tadqiqot davomida nutqiy bo‘lmagan kommunikativ vositalarni shakllantirish masalasi ham korreksion-metodik tizim bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan. Bunda mimika, imo-ishora, tana holati va emotsional ifodalarni anglash hamda ulardan muloqotda foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tahlil qilingan. Xususan, V.Z.Deniskinaning yondashuviga tayangan holda mushaklar tonusini boshqarish, mimika va ifodali harakatlarni o‘zlashtirish, ularni etyudlar orqali mustahkamlash hamda syujetli-rolli o‘yinlar va kundalik muloqotga kiritish bosqichlari yoritilgan. Ushbu yo‘nalishning korreksion ahamiyati ko‘zi ojiz

bolalarda nutqning mazmuniy jihatlari bilan bir qatorda uning emotsional-ifodaviy va ijtimoiy-kommunikativ komponentlarini rivojlantirish zarurati bilan asoslangan.

